

**Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining  
2024-yil I yarim yilligiga mo'ljallangan  
ISH-REJASI**

<b>No</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi</b>	<b>Ijro muddati</b>
<b>YANVAR</b>		
<b>1.</b>	Tovar-xom ashyo birjalarida 0,2 va 0,5 tonnalik kichik lotlarda mineral o'g'itlar va yoqilg'i moylash materiallarining barcha hududlar bo'yicha savdolarga doimiy qo'yib borilishini ta'minlash maqsadida Tovar-xom ashyo birjalari va sotuvchilarga taqdim etilgan ko'rsatmalarni nazorat qilish. Zarur hollarda birja savdolarining bir savdo sessiyasida bir xaridor tomonidan xarid qilinadigan mahsulot hajmlarining maksimal miqdorini (limitini) belgilash bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2024-yil 9-yanvar
<b>2.</b>	Qo'mitaning 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar bo'yicha yillik hisobotlarni tuzish va belgilangan tartibda tegishli idoralarga yuborish.	2024-yil 10-yanvar
<b>3.</b>	Savdo tarmoqlari ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan mahsulotlarni etkazib beruvchilarini tanlash shartlari va tartibini, bozorga kirish bo'yicha sun'iy to'siqlar va cheklovlari mavjudligini o'rganish.	2024-yil 15-yanvar
<b>4.</b>	Davlat boshqaruv organlari va mahalliy ijroiya hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning raqobat qonunchiligiga muvofiqligi yuzasidan o'tkazilgan o'rganishlarda aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish.	2024-yil 15-yanvar
<b>5.</b>	Qo'mitaning 2023-yil 11-iyuldagi 94-ICH-son buyrug'iga asosan hududiy organlar ish samaradorligini oshirish maqsadida ularning eng muhim faoliyat ko'rsatkichlari bo'yicha 2023-yil uchun reyting baholash ishlarini amalga oshirish.	2024-yil 15-yanvar
<b>6.</b>	Qonun xujjatlari va davlat organlari qarorlarining raqobat muhtiga ta'sirini baholash sohasida 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida brifing tashkil etish yoki OAVda tahliliy materiallar yoritish.	2024-yil 15-yanvar

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
7.	Ijtimoiy ahamiyatga ega oziq-ovqat mahsulotlari zanjirini o'rganish rejasini ishlab chiqish. Bunda, oziq-ovqat mahsulotlari zanjiri ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish (import qilish)dan boshlab oxirgi iste'molchigacha yetgazib beriladigan jarayonni qamrab olish.	2024-yil 20-yanvar
8.	Davlat xaridlari bo'yicha savdolarini nazorat qilish sohasida 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida brifing tashkil etish yoki OAVda tahliliy materiallar yoritish.	2024-yil 25-yanvar
9.	"Davlat organlari faoliyati yuzasidan vujudga kelishi mumkun bo'lgan tanqidiy xavfni tahlil qilish va unga qarshi kurashish strategiyasi" mavzusida Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi bilan hamkorlikda media-trening tashkil etish.	2024-yil 25-yanvar
10.	Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari narxlari dinamikasini yuritish maqsadida Qo'mitaning "Fairtech" yagona axborot tizimiga tegishli bo'lim yaratgan holda narxlarni monitoring qilish jarayonini avtomatlashtirish yuzasidan Qo'mita huzuridagi "Raqamli transformatsiya va outsorsing markazi" DUKga texnik shart taqdim etish	2024-yil 25-yanvar
11.	O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi Qonunining 24-27-moddalariga asosan davlat ishtirokidagi korxonalarini tashkil etish (qayta tashkil etish) hamda iqtisodiy konsentratsiya bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o'zgartirishlar yuzasidan Qo'mitaning barcha hududiy organlari mas'ul xodimlari ishtirokida amaliy seminar o'tkazish.	2024-yil 25-yanvar
12.	"Hududgazta'minot" va "Hududiy elektr tarmoqlari" AJlar tomonidan ishlab chiqilgan iste'molchilarni tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ta'minlash to'g'risidagi ommaviy shartnomalarni raqobat to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi yuzasidan ko'rib chiqish va kelishish.	2024-yil yanvar
13.	"Kredit axborot tahliliy markazi" Kredit byurosi" tomonidan Raqobat qonunchiligiga amal qilish holatlari yuzasidan o'rganishlar olib boorish.	2024-yil 26-yanvar
14.	Havo yo'llari xizmatlari bozorida tahlillar o'tkazish, jumladan: <i>havo transporti orqali yo'lovchi tashish;</i> <i>havo transporti orqali yuk tashish;</i>	2024-yil 27-yanvar

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
	<i>havo transporti orqali pochta tashish.</i>	
15.	Ta'lim olish, tajriba almashish, asbob-uskuna kiritish va boshqa yo'nalishlarda grant jalb qilish bo'yicha JICA, KOICA, GIZ kabi tashkilotlar bilan uchrashuvlar tashkil etish va muzokaralar olib borish orqali o'zaro hamkorlik aloqalarini o'rnatish, jadallashtirish.	2024-yil 29-yanvar
16.	Madaniyat vazirligi tomonidan qabul qilingan hujjatlarni ularning raqobat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan o'rganishdan o'tkazish hamda o'rganish natijalari bo'yicha tegishli choralar ko'rish.	30-yanvar
17.	Ichki bozorda avtomobil benzini, shu jumladan AI-80 markali benzin chakana narxlarini belgilashda raqobatga qarshi kelishuvlarni va muvofiqlashtirilgan harakatlarni aniqlash va bartaraf etish.	2024-yil 30-yanvar
18.	Qo'mitaning Jizzax va Sirdaryo viloyatlari hududiy organlari tomonidan davlat xaridlari elektron tizimlarida amalga oshirilayotgan tanlov savdolari yuzasidan o'tkazilgan monitoring va o'rganishlarni tahlil qilib rahbariyatga kiritish.	2024-yil 30-yanvar
19.	O'zbekiston Respublikasi Qurilish va kommunal xo'jaligi vazirligi huzuridagi davlat muassasasi shaklidagi Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish respublika markazi tomonidan 2022-yil va 2023-yilning yanvar-dekabr oylarida davlat xaridlari sub'ektlariga davlat xaridlarining elektron tizimlarida xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatilishida (Operatorlik faoliyati) qonunchilik talablariga rioya qilinishi yuzasidan o'rganish.	2024-yil 31-yanvar
20.	Hududlardagi issiqlik ta'minoti korxonalarini tomonidan maishiy iste'molchilarga yetkazib berilayotgan issiqlik energiyasi to'liq sifatli yetkazib berilishi holatlari yuzasidan o'rganishlar o'tkazish.	2024-yil yanvar
21.	Bug'doy, shakar va benzin mahsulotlarining narxlarini doimiy monitoring qilib borish, narxlarning keskin oshishining oldini olish choralarini ko'rish va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borish.	2024-yil yanvar

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
22.	Elektron tijorat savdolaridagi shartnomalarni (Zoodmall, Uzummarket) oferta shartnomalarini tomonlarning teng xuquqliligi asosida tuzilganligi, iste'molchilarning huquqlari va manfaatlarini kamsitishga olib keladigan shartlar kiritilganligi holatlari yuzasidan o'rganish o'tkazish.	2024-yil yanvar
23.	Tijorat bank plastik kartalaridan foydalanuvchilari uchun "SMS-xabarnoma" xizmatini ko'rsatishda iste'molchilarning tanlash huquqini ta'minlash maqsadida o'rganish va tahlillar o'tkazish, tegishli takliflar ishlab chiqish.	2024-yil yanvar
24.	Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida nodavlat notijorat tashkilotlari maqomini mustahkamlash bo'yicha Prezident Farmoni loyihasini ishlab chiqish.	2024-yil yanvar
25.	Huquqiy monitoring rejasi loyihasini shakllantirish bo'yicha tegishli takliflarni tayyorlash bo'yicha ishlarni tashkillashtirish.	2024-yil yanvar
26.	Soha faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish.	2024-yil yanvar
27.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-dekabrdagi "Tarmoq va hududlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar to'g'risida"gi 48-son Bayoni ijrosini tashkil etish bo'yicha CHORA-TADBIRLAR REJASI ni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish.	2024-yil yanvar
28.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF-101-son Farmonida O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi mas'ul etib belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan ma'lumotlarni Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish.	2024-yil yanvar
29.	O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasining "paxta xomashyosi seksiyasi"da paxta xomashyosini yetishtiruvchi xo'jaliklar va klasterlar o'rtasida paxta xomashyosini yetkazib berish bo'yicha fyuchers shartnomalari shartlari asosida o'tkaziladigan birja savdolarini	2024-yil 10-fevral

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
	monitoring qilish hamda monitoring yakuni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritish.	
30.	Davlat ishtirokidagi korxonalarni tashkil etish (qayta tashkil etish) hamda iqtisodiy konsentratsiya bilan bog'liq normativ-huquqiy hujjatlarga kiritilgan o'zgartirishlar yuzasidan har bir hududda Qo'mitaning barcha hududiy organlari tomonidan davlat ishtirokidagi korxonalar va davlat muassasalari hamda 200 dan ortiq tadbirkorlik subyektlari ishtirokida seminarlar o'tkazish.	2024-yil 12-fevral
31.	Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari import konsentratsiyalashuvi darajasini hamda ustun mavqei yoki ustun muzokara kuchi holatlari mavjudligini tahlil qilish.	2024-yil 15- fevral
32.	O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarini faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi qonuniga asosan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasiga belgilangan tartibda axborotlarni taqdim etish.	2024-yil 15-fevral
	Vazirlar Mahkamasining 2008-yil 24-dekabrdagi 277-son qarori ijrosi yuzasidan Tabiiy monopoliyalar subyektlari tomonidan majburiy xizmat ko'rsatilishi kerak bo'lgan iste'molchilarga ko'rsatilayotgan xizmatlar yuzasidan so'rov asosida o'rganish va tahlillar olib borish.	2024-yil fevral
33.	O'zbekiston respublika tovar-xomashyo birjasining "Paxta xomashyosi seksiyasi"da paxta xomashyosini yetishtiruvchi xo'jaliklar va klasterlar o'rtasida paxta xomashyosini yetkazib berish bo'yicha fyuchers shartnomalari shartlari asosida o'tkaziladigan birja savdolarida raqobatga qarshi harakatlar, shu jumladan kelishib olingan harakatlar, narxlarni sun'iy oshirish hamda qonunchilikda taqiqlangan manipulyatsiyalarni aniqlash choralarini ko'rish.	2024-yil 18- fevral
34.	Tovar-xom ashyo birjalari va iste'mol bozorlarida narxlarni nazorat qilish sohasida 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida brifing tashkil etish yoki OAVda tahliliy materiallar yoritish.	2024-yil 19-fevral
35.	Birja savdolarida suyultirilgan gaz mahsuloti realizatsiyasi holatini tahlil qilish hamda chakana narxlarga ta'sir etuvchi omillar, shu jumladan Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi tomonidan taqdim etiladigan ro'yxatga asosan	2024-yil 24- fevral

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
	birja savdolarida ishtirik etishga ruxsat etilgan xaridorlar savdosini tashkil etish imkoniyatini tahlil qilish.	
36.	“O‘zbekneftgaz” AJ tomonidan Raqobat qonunchiligiga amal qilinishi holatlari yuzasidan tegishli o‘rganishlar olib borish.	2024-yil 20-mart
37.	“Biz sizni eshitamiz” loyihasi doirasida “Davlat xaridlari sohasi” mavzusida tadbirkorlar va xorijiy investorlar bilan o‘tkaziladigan uchrashuvni OAVda keng yoritish.	2024-yil 25-fevral
38.	“Birja a‘zolari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat qoidalari”ga muvofiq tovar-xom ashyo birjalaridan birja a‘zolarining ichki nazorat bo‘yicha mas‘ul shaxsining faoliyatlari haqidagi hisobotlarini tahlil qilish hamda belgilangan tartibda vakolatli organga taqdim etish.	2024-yil 28-fevral
39.	Qo‘mitaning Surxondaryo, Qashqadaryo, Qoraqalpog‘iston va Xorazm viloyatlari hududiy organlari tomonidan davlat xaridlari elektron tizimlarida amalga oshirilayotgan tanlov savdolari yuzasidan o‘tkazilgan monitoring va o‘rganishlarni tahlil qilib rahbariyatga kiritish.	2024-yil 28-fevral
40.	O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va Sport vazirligi va tomonidan 2023- va 2024-yillar davomida amalga oshirgan davlat xaridlarini qonuniyligi yuzasidan o‘rganish o‘tkazish.	2024-yil 29-fevral
41.	Sirdaryo viloyat hokimligi tomonidan qabul qilingan hujjatlarni ularning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan o‘rganishdan o‘tkazish hamda o‘rganish natijalari bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish.	2024-yil 29-fevral
42.	Onlayn to‘lov tizimlari bozorida tahlillar o‘tkazish.	2024-yil 29-fevral
43.	Qurilish materiallari ishlab chiqarish va sotish bozorida tahlillar o‘tkazish.	2024-yil 29-fevral

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
44.	Mahallabay ishlash tizimi bo'yicha (zarur bo'lganda joyiga chiqqan holda aholi bilan uchrashish) hokim yordamchilari faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	2024-yil 29-fevral
45.	Bug'doy, shakar va benzin mahsulotlarining narxlarini doimiy monitoring qilib borish, narxlarning keskin oshishining oldini olish choralarini ko'rish va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borish.	2024-yil fevral
46.	Gaz ta'minoti korxonalarini tomonidan aholiga suyultirilgan uglevodorod gazini yetkazib berish holatlari belgilangan muddatlarda va hajmlarda yetkazilishi, avtotransport vositalari bilan ta'minlanganligi, foydalanilayotgan tarozilar soni hamda tarozilarning davlat qiyoslash ko'rigidan o'tkazilganligini, shuningdek gaz to'ldirish shahobchalarining joriy quvvati va mavjud gaz balonlarini to'ldirish imkoniyatini o'rganish va tahlil qilish.	2024-yil fevral
47.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi 428-sonli qarori talablariga asosan tashqi reklama konstruksiyalarini to'liq xatlovdan o'tkazish choralarini ko'rish.	2024-yil fevral
48.	Iste'molchilarga to'lov xizmatlarini ko'rsatishda vositachilik haqi undirilishi holati yuzasidan o'rganish va tahlil o'tkazish, tegishli takliflar ishlab chiqish.	2024-yil fevral
49.	Elektron tijorat savdolaridagi shartnomalarni (Elmakon.uz, olcha.uz,) oferta shartnomalarini tomonlarning teng xuquqliligi asosida tuzilganligi, iste'molchilarning huquqlari va manfaatlarini kamsitishga olib keladigan shartlar kiritilganligi holatlari yuzasidan o'rganish o'tkazish.	2024-yil fevral
50.	Qo'mita faoliyati va amalga oshirilgan ishlar to'g'risida ma'lumotlar (pasport) tayyorlash hamda Vazirlar Maxkamasi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish.	2024-yil fevral
<b>MART</b>		
51.	Asosiy turdagi 20 dan ortiq ijtimoiy muhim ahamiyatga ega va strategik tovarlar narxlarining keskin tebranishlari oldini olish, narxlarning asossiz o'sishi holatlarini aniqlash maqsadida tizimli	2023-yil 10-mart

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
	monitoring olib borish bo'yicha FAIR PRICE (Adolatli narx) axborot tizimini yaratish. (PQ-108, 06.07.2023 y.)	
52.	Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy turdagi oziq-ovqat tovarlarning import qilinishida tartibga solish yuklamasini qisqartirish maqsadida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan asosiy turdagi oziq-ovqat tovarlarga importiga nisbatan o'rnatilgan notarif tartibga solish instrumentlari, xususan transport, logistika, karantin ruxsatnomasi va fitosanitar sertifikat, muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish, gigiyenik sertifikat rasmiylashtirish to'lovlar (yig'imlar) stavkalari, miqdorlari va turlarini xatlovdan o'tkazish va qayta ko'rib chiqilishi zarur takliflar ishlab chiqish.	2024-yil 10-mart
53.	Birja savdolarida bug'doy mahsuloti realizatsiyasi holatini tahlil qilish hamda chakana narxlarga ta'sir etuvchi omillar, shu jumladan unni qayta ishlovchi korxonalar tomonidan qonunchilikda belgilangan hajmlarda un mahsuloti savdolariga qo'yilishini tahlil qilish.	2024-yil 15-mart
54.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatlarga tashrifi davomida Qo'mitaga birlashtirilgan tumanlarni tasdiqlangan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlar dasturining ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar bo'yicha umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotlarni rahbariyatga kiritish.	2024-yil 15-mart
55.	To'lov tizimlari operatorlari faoliyatini o'rganish, ushbu faoliyat turi bo'yicha amaldagi tartibga soluvchi normative-huquqiy hujjatlarni hatlovdan o'tkazish hamda ular o'rtasida teng raqobat muhitini ta'minlashga qaratilgan takliflarni Vazirlar mahkamasiga kiritish.	2024-yil 15-mart
56.	"15-mart – Butunjahon iste'molchilar huquqlari kuni" munosabati bilan tashkiliy chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2024-yil mart
57.	Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida brifing tashkil etish yoki OAVda tahliliy materiallar yoritish.	2024-yil 17-mart
58.	"Navoiy azot" AJ tomonidan Raqobat qonunchiligiga amal qilinishi holatlari yuzasidan tegishli o'rganishlar olib borish.	2024-yil 20-mart



№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
59.	“Uzbekistan Airports” AJ va jamiyat tarkibidagi 11 ta xalqaro aeroportlar tomonidan Raqobat qonunchiligiga amal qilinishi yuzasidan tegishli o‘rganishlar olib borish.	2024-yil 22-mart
60.	Iste‘mol bozorlarida shakar, paxta va kungaboqar yog‘i mahsuloti zanjirini o‘rganish. Bunda, oziq-ovqat mahsulotlari zanjiri ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish (import qilish)dan boshlab oxirgi iste‘molchigacha yetgazib beriladigan jarayon qamrab olinadi.	2024-yil 18-mart
61.	Reklama bozorini tartibga solish sohasida 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida brifing tashkil etish yoki OAVda tahliliy materiallar yoritish.	2024-yil 19-mart
62.	“Biz sizni eshitamiz” loyihasi doirasida “Aviataxuv xizmatlarini ko‘rsatish sohasi” mavzusida tadbirkorlar va xorijiy investorlar bilan o‘tkaziladigan uchrashuvini OAVda keng yoritish.	2024-yil 19-mart
63.	O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari J.A.Qo‘chqorov tomonidan 2023-yil 3-oktabrdagi 03/31-44-son bilan tasdiqlangan Samarqand viloyatida raqobatni rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ning 5-bandida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash.	2024-yil 20-mart
64.	Insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirishlar va kartel kelishuvlarga qarshi kurashish sohasida 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida brifing tashkil etish yoki OAVda tahliliy materiallar yoritish	2024-yil 25-mart
65.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-sonli Farmonining 14-bandida belgilangan, har haftaning juma kuni “Mehr va saxovat kuni” sifatida ehtiyojmand aholi, nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda yolg‘iz keksalar holidan xabar olish, ularga g‘amxo‘rlik qilish bo‘yicha xayriya tadbirlarini o‘tkazish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligiga ma‘lumotlarni kiritish.	2024-yil 25-mart
66.	Respublikadagi oligopolistik bozorlarini aniqlash va ushbu bozorlardagi tovarlar (ish va xizmatlar) narxlari shakllanishida kartel kelishuvlari yoki kelishib olingan harakatlar mavjudligini o‘rganish.	2024-yil 25-mart

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
67.	"Tovar xom-ashyo birjasi to'g'risida"gi Qonun loyixasini ishlab chiqish va tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishgan holda Vazirlar Mahkamasiga kiritish	2024-yil 25-mart
68.	O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari va hududiy organlari xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish va etika sohasida o'qitishlar (semenar) tashkil etish.	2024-yil 25-mart
69.	Qo'mita markaziy apparati va hududiy organlarning mutaxissilari uchun birja savdolarini tashkil etish va nazorat qilish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish, seminar ishtirokchilarini birja faoliyatiga oid so'nggi yangiliklar bilan tanishtirish maqsadida o'quv seminar tashkil etish.	2024-yil 27-mart
70.	Aholi va ijtimoiy soha obyektlariga yetkazib berilayotgan suyultirilgan gaz hajmlari va narxлари bo'yicha hududlar kesimida o'rganishlar o'tkazish.	2024-yil 28-mart
71.	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda vazirlik tizim tashkilotlarida 2022-2023-yillarda amalga oshirilgan davlat xaridlarini qonuniyligi yuzasidan o'rganish o'tkazish.	2024-yil 28-mart
72.	Qo'mitaning Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlari hududiy organlari tomonidan davlat xaridlari elektron tizimlarida amalga oshirilayotgan tanlov savdolari yuzasidan o'tkazilgan monitoring va o'rganishlarni tahlil qilib rahbariyatga kiritish.	2024-yil 29-mart
73.	Iqtisodiy konsentratsiya bo'yicha xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish, bunda yirik bitimlar va kelishuvlarni tuzishga rozilik berishda monopoliyaga qarshi organ tomonidan belgilanadigan talablar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganish.	2024-yil 29-mart
74.	Energetika vazirligi tomonidan qabul qilingan hujjatlarni ularning raqobat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan o'rganishdan o'tkazish hamda o'rganish natijalari bo'yicha tegishli choralar ko'rish.	2024-yil 30-mart
75.	Navruz bayrami munosabati bilan hududlardagi markaziy bozorlarda tashkil etiladigan "Savdo yarmarkalari"da asosiy turdagi mahsulotlarning narxlarini monitoring qilish hamda narxlar keskin oshishi holati kuzatilganda tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2024-yil 30-mart

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
76.	Qo'mita tizimida hujjatlar bilan ishlash va ijro intizomi holatini o'rganish bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi yig'ma Ishchi guruhi bilan birgalikda o'tkazilgan o'rganishlar natijasi bo'yicha ma'lumotlarni Qo'mita rahbariyatiga va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.	2024-yil 31-mart
77.	Iqtisodiy konsentratsiya va iqtisodiyotda davlat ishtirokini nazorat qilish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlash.	2024-yil 31-mart
78.	Tovar, moliya va raqamli bozorlarni tahlil qilish va tartibga solish bo'limida amalga oshirilgan ishlar bo'yicha hisobot tayyorlash	2024-yil 31-mart
79.	Raqobatga qarshi kelishuvlar, muvofiqlashtirilgan harakatlar va insofsiz raqobatga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ommaviy axborot vositalari uchun materiallar tayyorlash va e'lon qilib borish.	2024-yil 31-mart
80.	O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi hamda Qozog'iston Respublikasi Raqobatni himoya qilish va rivojlantirish agentligi o'rtasida Qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan raqobat siyosati sohasida o'zaro anglashuv hamda hamkorlik to'g'risida Memorandumni tegishli tartibda Qozog'iston tomoni bilan kelishish.	2024-yil 31-mart
81.	Davlat dasturida belgilangan ishlarni bajarilishini monitoring qilish va natijasi bo'yicha Vazirlar Maxkamasiga ma'lumot kiritish.	2024-yil mart
82.	Elektron tijorat savdolaridagi shartnomalarni (openshop, mediapark.uz va boshqa hududlardagi) oferta shartnomalarini tomonlarning teng xuquqliligi asosida tuzilganligi, iste'molchilarning huquqlari va manfaatlarini kamsitishga olib keladigan shartlar kiritilganligi holatlari yuzasidan o'rganish o'tkazish.	2024-yil mart
83.	Ko'p kvartirali uylardagi umumiy mol-mulkni saqlash, undan foydalanish hamda uni ta'mirlash va tutash bo'lgan yer uchastkasini obodonlashtirish ishlari bo'yicha boshqaruv servis kompaniyalari va XUJMShlar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni holatini o'rganish va tegishli tahliliy ma'lumotlar tayyorlash.	2024-yil mart

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
84.	Bug'doy, shakar va benzin mahsulotlarining narxlarini doimiy monitoring qilib borish, narxlarning keskin oshishining oldini olish choralari ko'rish va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borish.	2024-yil mart
85.	Teatr-konsert tadbirlarini jonli ijroda bo'lib o'tishi haqida reklama va e'lonlar berilish holatlarini hamda tadbirlarda berilgan reklama ma'lumotlariga amal qilinish holatlarini tegishli mutasaddi tashkilotlar vakillari bilan birgalikda o'rganish.	2024-yil mart
86.	O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining "Raqobatga oid ishlarni ko'rib chiqishning ayrim masalalari to'g'risida"gi qarori loyihasini tayyorlash.	2024-yil mart
87.	Qo'mita markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari rahbarlari bilan birgalikda 2024-yil 1-aprelga qadar Elektron hukumatning ma'lumotnomalar va klassifikatorlar registriga moslashtirgan holda "FAIR TECH" axborot tizimidagi ma'lumotlar doirasida ma'lumotnomalar va klassifikatorlar registri reyestrini shakllantirish.	2024-yil aprel
<b>APREL</b>		
88.	O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga (JST) qo'shilish bo'yicha Ishchi guruhning navbatdagi 8-yig'ilishiga puxta tayyorgarlik ko'rish va tegishli qismlari bo'yicha respublikaning pozitsiyalarini shakllantirish maqsadida muhokama qilinadigan materiallarni tayyorlash.	2024-yil 5-aprel
89.	Hududiy organlar tomonidan chorak yakuni bo'yicha amalga oshirilgan ishlarini o'rganib chiqish va tahliliy ma'lumotlarni rahbariyatga kiritish.	2024-yil 10-aprel

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
90.	“FAIR TECH” yagona axborot tizimining “FAIR PRICE” (Adolatli narx) axborot tizimi modulini tegishli davlat organlari va elektron hukumat axborot tizimlari bilan integratsiya qilinishi ta’minlash.	2024-yil 10-aprel
91.	Milliy baholash natijalariga ko’ra aniqlangan tavakkalchiliklarni kamaytirish bo’yicha “Birja a’zolari uchun jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg’in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo’yicha ichki nazorat qoidalari”ni takomillashtirish yuzasidan Departamentga taklif kiritish	2024-yil 10-aprel
92.	Surxondaryo viloyat hokimligi tomonidan qabul qilingan hujjatlarni ularning raqobat to’g’risidagi qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan o’rganishdan o’tkazish hamda o’rganish natijalari bo’yicha tegishli choralar ko’rish.	2024-yil 15-aprel
93.	Davlat zaxirasini boshqarish tizimini “davlat intervensiyasi” mexanizmiga transformatsiya qilish yuzasidan takliflarni ishlab chiqish.	2024-yil 15-aprel
94.	Qo’mitaning 2023-yil 11-iyuldagi 94-ICH son buyrug’iga asosan Hududiy organlar ish samaradorligini oshirish maqsadida ularning eng muhim faoliyat ko’rsatkichlari bo’yicha 2024-yil 1-chorak uchun reyting baholash ishlarini amalga oshirish.	2024-yil 15-aprel
95.	“O’zbekiston telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish respublika markazi” DUK tomonidan Raqobat qonunchiligiga amal qilinishi holatlari yuzasidan o’rganishlar o’tkazish	2024-yil 20-aprel
96.	“Farg’ona neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ tomonidan Raqobat qonunchiligiga amal qilinishi holatlari yuzasidan o’rganishlar o’tkazish	2024-yil 24-aprel
97.	O’zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatlarga tashriflariga tayyorgarlik ko’rish doirasida Qo’mitaga birlashtiriladigan tumanlardagi mahallalarning kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish “yangi o’sish nuqta” lari (drayverlarni)ni shakllantirish va to’liq ishga solish, yangi investitsiya loyihalarini ishlab chiqish, “mahallabay” va “xonodonbay” ishlash tizimida amalga oshiriladigan ishlarni tashkil etish.	2024-yil 25-aprel
98.	Iste’mol bozorlarida un hamda qolipli non mahsulotlari zanjirini o’rganish.	2024-yil 25-aprel

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
	Bunda, oziq-ovqat mahsulotlari zanjiri ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish (import qilish)dan boshlab oxirgi iste'molchigacha yetgazib beriladigan jarayon qamrab olinadi.	
99.	Respublikadagi barcha oliy ta'lim muassasalarida (Xususiy oliy ta'lim muassasalaridan tashqari) 2023-yil va 2024-yillarda amalga oshirilgan davlat xaridlarini qonuniyligi yuzasidan o'rganish o'tkazish/	2024-yil 26-aprel
100.	"Hududgaz" AJ tomonidan Raqobat qonunchiligiga amal qilinishi holatlari yuzasidan tegishli o'rganishlar o'tkazish	2024-yil 30-aprel
101.	O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi hamda Ruminiya Raqobat kengashi o'rtasida raqobat qonunchiligini qo'llash sohasida o'zaro anglashuv hamda hamkorlik to'g'risida memorandum loyahasini ishlab chiqish hamda tegishli vazirlik va idoralar bilan o'rnatilgan tartibda imzolash bo'yicha tegishli choralarni amalga oshirish.	2024-yil 30-aprel
102.	Qo'mitaning Farg'ona, Namangan va Andijon viloyatlari hududiy organlari tomonidan davlat xaridlari elektron tizimlarida amalga oshirilayotgan tanlov savdolari yuzasidan o'tkazilgan monitoring va o'rganishlarni tahlil qilib rahbariyatga kiritish.	2024-yil 30-aprel
103.	Xodimlar bilan ishlash jarayonini, mexnat intizomi holatini bevosita o'rganish va amaliy yordam ko'rsatish maqsadida Qo'mitaning Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasini joyiga chiqqan holda o'rganish o'tkazish.	2024-yil 30-aprel
104.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi tomonidan qabul qilingan hujjatlarni ularning raqobat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan o'rganishdan o'tkazish hamda o'rganish natijalari bo'yicha tegishli choralar ko'rish.	2024-yil 30-aprel
105.	Davlat muassasalari faoliyatini tahlil qilib, bitta tovar bozorida beshta va undan ortiq xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyat yuritib kelayotgan, raqobat rivojlangan sohalarda faoliyat yuritayotgan davlat muassasalarini xususiylashtirish yoki tugatish bo'yicha takliflarni Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga kiritish.	2024-yil 30-aprel
106.	Elektrotexnikalar (quyosh panellari va isitish batareyalari) ishlab chiqarish va sotish bozorida tahlillar o'tkazish.	2024-yil aprel

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
107.	Bank xizmatlari bozorida tahlillar o'tkazish.	2024-yil aprel
108.	"Xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishda Qo'mita faoliyati: olib borilayotgan ishlar, natijalar va kelgusi rejalar" haqida tahliliy ma'lumotlar yoritish.	2024-yil aprel
109.	Qo'mita tomonidan 2024-yil 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar tog'risida turli yo'nalishlarda infografik ko'rinishda ma'lumot tayyorlash va joylashtirish.	2024-yil aprel
110.	Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlarida jismoniy va yuridik shaxslar bilan ochiq muloqot tashkil etish, jamoatchilik murojaatlarini qabul qilib OAVda yoritish.	2024-yil aprel
111.	Monopoliyaga qarshi komplayensni joriy etish sohasida 2023-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida brifing tashkil etish yoki OAVda tahliliy materiallar yoritish.	2024-yil aprel
112.	Reklama qilinishi taqiqlangan dori vositalarini reklama qilinishiga yo'l qo'ymaslik hamda dori vositalarining reklamalariga qo'yilgan cheklovlarga doir talablarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida barcha reklama vositalarida doimiy monitoringlar o'tkazish.	2024-yil aprel
113.	Hududlarda iste'molchilarga maishiy chiqindi tashish xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarda qonunchilik talablariga rioya qilinishi yuzasidan o'rganish o'tkazish.	2024-yil aprel
114.	Ite'molchilarga nodavlat tibbiyot korxonalarini tomonidan tibbiy xizmat ko'rsatishda amaldagi qonunchilik talabalariga rioya etilishi o'rganish.	2024-yil aprel
115.	Ichki va tashqi turizm xizmatlarini ko'rsatish faoliyatlarida iste'molchilarning huquqlarini ta'minlanishini o'rganish.	2024-yil aprel
116.	Vazirlar Mahkamasining quyidagi qarorlarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish: - 2003-yil 13-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda O'zbekiston Respublikasida umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida" 75-son qarorini;	2024-yil aprel

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
	<p>- 2021-yil 3-iyundagi “Davlat ishtirokidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni, shuningdek, ularning affillangan shaxslarini va xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish vakolatlari berilgan davlat muassasalarini tashkil etishda (qayta tashkil etishda) monopoliyaga qarshi organning dastlabki roziligini olish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 346-son qarorini;</p> <p>- 2022-yil 30-noyabrdagi “Tovar-xomashyo birjalarining faoliyatini tartibga solish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” 687-son qarorini.</p>	
117.	Qo‘mitaning markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari va hududiy boshqarmalar tomonidan o‘tgan davr (choraklik) mobaynida amalga oshirilgan ishlarini jamlash, tahlil qilish hamda o‘rnatilgan tartibda Qo‘mita rahbariyatiga taqdim etish.	2024-yil aprel
	<b>MAY</b>	
118.	Jizzax viloyat hokimligi tomonidan qabul qilingan hujjatlarni ularning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan o‘rganishdan o‘tkazish hamda o‘rganish natijalari bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish.	2024-yil 10-may
119.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatlarga tashrifi davomida Qo‘mitaga birlashtirilgan tumanlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlar dasturi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan ma‘lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga va Hisob palatasiga kiritish.	2024-yil 17-may
120.	Ommaviy axborot vositalarida va ijtimoiy tarmoqlarda Qo‘mita va boshqarma faoliyatida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida turkum materiallar, intervyu va boshqa vositalarda chiqishlar qilish.	2024-yil 20-may
121.	Ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish va import qilish bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlar bilan tematik suhbatlar o‘tkazish.	2024-yil 20-may
122.	Buxoro va Navoiy viloyatida jismoniy va yuridik shaxslar bilan ochiq muloqot tashkil etish, jamoatchilik murojaatlarini qabul qilib OAVda yoritish	2024-yil may



№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
123.	“O‘zbekgidroenergo” AJ va uning tizimidagi 13 ta elektrostansiyalari, “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ va uning tizimidagi 7 ta issiqlik elektr stansiyalari, “Angren IES” AJ va “Yangi Angren IES” AJ tomonidan Raqobat qonunchiligiga amal qilish holatlari yuzasidan tegishli o‘rganishlar olib borish.	2024-yil 24-may
124.	Birja savdolarida hamda yirik savdo tarmoqlarida iste‘molchilarga sotilayotgan mavsumiy ahamiyatga ega shakar mahsuloti narxlari yuzasidan o‘rganish o‘tkazish va narx tebranishi kuzatilganda narxlarni barqarorlashtirish yuzasidan tegishli ishlarni amalga oshirish.	2024-yil 25-may
125.	Qo‘mita rasmiy veb-saytini “Kibrxavfsizlik markazi” DUKdan ekspertizadan o‘tkazish.	2024-yil 25-may
126.	AQSh Xalqaro taraqqiyot agentligining (USAID) “Markaziy Osiyo mamlakatlarida energetikani tartibga solish sohasida hamkorlik” loyihasi doirasida Kommunal xizmatlarni tartibga solish milliy assosatsiyasi (NARUC) ekspertlari tomonidan 2024-yil o‘tkaziladigan o‘quv seminari va kursida Qo‘mita mutasaddilari va xodimlarining ishtirokini ta‘minlash.	2024-yil 25-may
127.	“O‘zbekiston kabel televideniyesi” MCHJ tomonidan Raqobat qonunchiligiga amal qilish holatlari yuzasidan tegishli o‘rganishlar olib borish.	2024-yil 28-may
128.	Iste‘mol bozorlarida sut (qadoqlangan) mahsuloti zanjirini o‘rganish. Bunda, oziq-ovqat mahsulotlari zanjiri ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish (import qilish)dan boshlab oxirgi iste‘molchigacha yetgazib beriladigan jarayon qamrab olinadi.	2024-yil 30-may
129.	“FAIR TECH” yagona axborot tizimining mobil ilovasini ishlab chiqish va faoliyatga to‘liq joriy etish.	2024-yil 30-may
130.	Yoshlar siyosati va sport vazirligi tomonidan qabul qilingan hujjatlarni ularning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan o‘rganishdan o‘tkazish hamda o‘rganish natijalari bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish.	2024-yil 30-may
131.	“Buxoro neftni qayta ishlash zavodi” MCHJ tomonidan Raqobat qonunchiligiga amal qilish holatlari yuzasidan tegishli o‘rganishlar olib borish.	2024-yil 30-may

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
132.	Qo'mitaning Toshkent viloyati va Toshkent shahar hududiy organlari tomonidan davlat xaridlari elektron tizimlarida amalga oshirilayotgan tanlov savdolari yuzasidan o'tkazilgan monitoring va o'rganishlarni tahlil qilish.	2024-yil 31-may
133.	Internet xizmatlari bozorida tahlillar o'tkazish.	2024-yil may
134.	Tovarlarni bo'lib to'lash krediti va masofadan onlayn sotish masalalari bo'yicha Germaniya qonunchiligi va amaliyotini o'rganish, tegishli takliflar ishlab chiqish.	2024-yil may
135.	Umumiy ovqatlanish shahobchalarining faoliyatida iste'molchilarning huquqlarini ta'minlanishini o'rganish.	2024-yil may
136.	Ovqatga qo'shiladigan biologic faol qo'shimchalarning va oziq ovqat qo'shimchalarning reklamasiga doir belgilangan cheklolarga rioya etilishi va qonun buzulishi holatlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha barcha reklama vositalarida monitoringlar o'tkazish.	2024-yil may
137.	"Reklama to'g'risida"gi (O'RQ-776-son 07.06.2022-yil) Qonunni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 22-martdagi "Davlat aktivlarini sotishda va ijaraga berishda elektron savdolari joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 209-son qarorini, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 31-avgustdagi "Tashqi reklama va ijtimoiy axborotning aylanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 428-son qarorini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish.	2024-yil may
<b>IYUN</b>		
138.	"FAIR TECH" yagona axborot tizimi doirasida Raqobat Qo'mitasi faoliyatini bosqichma-bosqich raqamlashtirish choralarini ko'rish.	2024-yil 1-iyun
139.	Xodimlar bilan ishlash jarayonini, mexnat intizomi holatini bevosita o'rganish va amaliy yordam ko'rsatish maqsadida Qo'mitaning Navoiy viloyati hududiy boshqarmasini joyiga chiqqan holda o'rganish o'tkazish.	2024-yil 14-iyun
140.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining viloyatlarga tashrifi davomida Qo'mitaga birlashtirilgan tumanlarni tasdiqlangan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlar	2024-yil

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
	dasturining ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan umumlashtirilgan tahliliy ma'lumotlarni rahbariyatga kiritish.	14-iyun
141.	Mahsulotlarni tomorqadan bozorgacha yetkazib berishda bozorlarning quvvatlari va boshqa omillar hisobiga monopoliya alomatlarining mavjudligi, raqobat darajasining yetarililigini tahlil qilish hamda tuman va viloyat hokimliklariga tegishli takliflar kiritish.	2024-yil 15-iyun
142.	Xorazm viloyat hokimligi tomonidan qabul qilingan hujjatlarni ularning raqobat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan o'rganishdan o'tkazish hamda o'rganish natijalari bo'yicha tegishli choralar ko'rish.	2024-yil 15-iyun
143.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolat bergan organning tabiiy monopoliya subyektlari tovarlarining narxlari (tariflari) bo'yicha qarori tabiiy monopoliya subyektlari tomonidan mazkur qaror kuchga kirguniga qadar o'n besh kundan kechiktirmay ommaviy axborot vositalarida hamda o'z rasmiy veb-saytlarida e'lon qilganligini, shuningdek namunaviy shartnomalarni (ofertalarni) rasmiy veb-saytlarida joylashtirilganlik holatlari yuzasidan xatlov o'tkazish.	2024-yil 20-iyun
144.	"Farg'ona azot" tomonida Raqobat qonunchiligiga amal qilinishi holatlari yuzasidan tegishli o'rganishlar olib borish.	2024-yil 22-iyun
145.	"Xorazm shakar" AJ, "Angren shakar" MCHJ tomonida Raqobat qonunchiligiga amal qilinishi holatlari yuzasidan tegishli o'rganishlar olib borish.	2024-yil 24-iyun
146.	Iste'mol bozorlarida mol go'shti mahsuloti zanjirini o'rganish. Bunda, ozuqa mahsulotlari (omuxta yem, sheluxa, shrot) narxlari shakllanishini tahlil qilish va xarajatlarni optimallashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	2024-yil 25-iyun
147.	Korporativ buyurtmachilar uchun bugungi kunda savdolarini amalga oshirishda kuzatilayotgan qonunbuzilish holatlariga qayta yo'l quymaslik bo'yicha seminarlar tashkil etish.	2024-yil 27-iyun
148.	Respublikadagi oligopolistik bozorlarini aniqlash va ushbu bozorlardagi tovarlar (ish va xizmatlar) narxlari shakllanishida kartel kelishuvlari yoki kelishib olingan harakatlar mavjudligini o'rganish.	2024-yil 27-iyun
149.	Qo'mita markaziy apparatining tarkibiy bo'linmalari, Hududiy organlari va idoraviy mansub	2024-yil

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
	tuzilmalari rahbarlarining 2-yarim yillik ish rejalarini ishlab chiqish va Qo'mita rahbariga tasdiqlatish.	27-iyun
150.	Neft mahsulotlari ishlab chiqarish va sotish xizmatlaribozorida tahlillar o'tkazish.	2024-yil 29-iyun
151.	Iqtisodiy konsentratsiya va iqtisodiyotda davlat ishtirokini nazorat qilish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlash.	2024-yil 30-iyun
152.	“Yandex UB” MCHJ tomonida Raqobat qonunchiligiga amal qilinishi holatlari yuzasidan tegishli o'rganishlar olib borish.	2024-yil 30-iyun
153.	Qo'mita tomonidan amaldagi qonunchilik hujjatlarini hamda davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan qabul qilingan hujjatlarni ularning raqobat to'g'risidagi qonunchilikka muvofiqligi yuzasidan o'tkazilgan o'rganish natijalari bo'yicha – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga hamda Vazirlar Mahkamasiga belgilangan tartibda takliflar kiritish.	2024-yil 30-iyun
154.	5-dekabr – Xalqaro raqobat kuniga bag'ishlab Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi tomonidan o'tkaziladigan xalqaro konferensiyani yuqori darajada tashkil etish uchun tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda tayyorgarlik ishlarini olib borishni boshlash.	2024-yil 30-iyun
155.	Bug'doy va shakar mahsulotlarining narxlarini doimiy monitoring qilib borish, narxlarning keskin oshishining oldini olish choralari ko'rish va amalga oshirilgan ishlar bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritib borish.	2024-yil iyun
156.	Iqtisodiy konsentratsiya va iqtisodiyotda davlat ishtirokini nazorat qilish sohasida 2024-yil 1-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida brifing tashkil etish yoki OAVda tahliliy materiallar yoritish.	2024-yil iyun
157.	Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish bo'yicha 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida brifing tashkil etish yoki OAVda sohaga oid tahliliy materiallar yoritish.	2024 yil iyun

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
158.	<p>Qo'mita tomonidan "Raqamli hukumat loyihalarini boshqarish markazi" DM so'roviga asosan axborot tizimlari, ma'lumotlar bazalariga tezkor ulanish va nusxa olishga to'siqsiz foydalanish imkoniyatini yaratish.</p> <p>(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-dekabrdagi "Tarmoq va hududlarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish hamda davlat boshqaruvini raqamlashtirish bo'yicha ustuvor vazifalar to'g'risida"gi 48-son bayoni 13-band.)</p>	2024-yil iyun
159.	<p>"Biz sizni eshitamiz" loyihasi doirasida "Yirik savdo tarmoqlari va onlayn platformalar orqali savdolari tashkil etish sohasi" mavzusida tadbirkorlar va xorijiy investorlar bilan o'tkaziladigan uchrashuvini OAVda keng yoritish.</p>	2024-yil iyun
160.	<p>Insofsiz raqobat amaliyotlariga, til biriktirishlar va kartel kelishuvlarga qarshi kurashish sohasida 2024-yil II-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida brifing tashkil etish yoki OAVda tahliliy materiallar yoritish.</p>	2024-yil iyun
161.	<p>Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida jismoniy va yuridik shaxslar bilan ochiq muloqot tashkil etish, jamoatchilik murojaatlarini qabul qilib OAVda yoritish.</p>	2024-yil iyun
162.	<p>Qo'mita tizimida hujjatlar bilan ishlash va ijro intizomi holatini o'rganish bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi yig'ma Ishchi guruhi bilan birgalikda o'tkazilgan o'rganishlar natijasi bo'yicha ma'lumotlarni Qo'mita rahbariyatiga va Vazirlar Mahkamasiga kiritish.</p>	har chorak
163.	<p>Qo'mitaning markaziy apparat tarkibiy bo'linmalari va hududiy boshqarmalar tomonidan o'tgan davr (I-yarim yillik) mobaynida amalga oshirilgan ishlari to'g'risidagi hisobotlarni jamlash, tahlil qilish hamda o'rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga hamda Oliy Majlis Senatiga taqdim etish.</p>	2024-yil iyun
164.	<p>Chakana savdo obyektlarini iste'molchilarga taklif etilayotgan maxsulotlarini yaroqlilik muddati, ishlab chiqarish sanasi, saqlash shartlari va savdo qoidarida belgilangan talablarga amal qilinishi hoatlari bo'yicha nodavlat-notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda monitoring qilish hamda natijalari bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p>	2024-yil iyun

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
165.	Iste'molchilarga ichimlik suv ta'minoti texnik imkoniyatga ega bo'lmagan hududalarga ichimlik suv yetkazib berilish holatlarini o'rganish.	2024-yil iyun
166.	Sug'urta xizmatlari ko'rsatishada kreditni qaytarmaslik xavfini sug'urtalash bo'yicha iste'molchilardan kelib tushayotgan murojaatlarni tahlil qilish. Bunda sug'urta xizmatlari ko'rsatilishida iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.	2024-yil iyun
167.	O'zbekiston Respublikasi hududida barcha reklama vositalari orqali tarqatilayotgan reklamalarning O'zbekiston Respublikasining davlat tilida tarqatilishini ta'minlash maqsadida Qo'mitaning barcha hududiy organlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining davlat tili masalalari bo'yicha maslahatchilari bilan hamkorlikda tegishli monitoring tadbirlarini tashkillashtirish.	2024-yil iyun
168.	Eksklyuziv huquqlar berilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning reyestri (ro'yxati)ga kiritilgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning eksklyuziv huquqlarini bekor qilish yoki saqlab qolish maqsadga muvofiqligini yuzasidan "ex-post" usulida baholashdan o'tkazish va uning natijalari bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish.	2024-yil iyun
169.	Davlat boshqaruv organlari va mahalliy ijroiya hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarning raqobat qonunchiligiga muvofiqligi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatiga hisobot berib borish.	2024-yil 30-iyun
170.	Quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish: O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va reklama to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilishi yuzasidan tahlil (o'rganish, ko'rik) o'tkazish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi qarorini (2196-son 18.02.2011-yil); O'zbekiston Respublikasining Xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasining "Xodimlari tijorat siridan foydalanadigan korxonalar va tashkilotlar uchun tijorat siri rejimiga rioya etilishi bo'yicha namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risidagi"gi qarorini(2818-son 28.07.2016-yil)	2024-yil iyun

№	Chora-tadbirlar nomi	Ijro muddati
	O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi raisining "Teatr-konsert tadbirlarini o'tkazishda fonogrammadan foydalanish to'g'risida ma'lumotni taqdim etish qoidalarini tasdiqlash haqida"gi buyrug'ini (1188-son 16.11.2002-yil) korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish.	
171.	Qonun loyihalarini tayyorlashning istiqbolli rejasini shakllantirish bo'yicha takliflar kiritish bo'yicha Rais topshirig'ini tayyorlash.	2024-yil iyun